

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

YO‘LDOSHEVA LATOFAT TOLIB QIZI

**TURIZM SOHASINI DAVLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING
IQTISODIY-IJTIMOY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of Doctor of philosophy (PhD) on economical
sciences**

Yo‘ldosheva Latofat Tolib qizi

Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy-ijtimoiy
mexanizmini takomillashtirish.....3

Юлдашева Латофат Толиб кизи

Совершенствование экономико- социального механизма государственного
регулирувания сферы туризма27

Yuldosheva Latofat Tolib kizi

Improving the economic and social mechanism of state regulation of the tourism
sector53

E‘lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ
List of published works57

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc33/01.02.2022.I.145.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**“IPAK YO‘LI” TURIZM VA MADANIY MEROS XALQARO
UNIVERSITETI**

YO‘LDOSHEVA LATOFAT TOLIB QIZI

**TURIZM SOHASINIDA VLAT TOMONIDAN TARTIBGA SOLISHNING
IQTISODIY-IJTIMOYIY MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH**

08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Samarqand – 2025

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.1.PhD/Iqt39372.PhD/Iqt1282 raqami bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy Kengash veb sahifasida (www.univ-silkroad.uz) va "Ziyonet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: **Mansurova Nargiza Shamsidinovna**
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar: **Norchayev Asatullo Norbo'tayevich**
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Taniyev Ahmadjon Bahromovich
iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Yetakchi tashkilot: **Qarshi davlat universiteti**

Dissertatsiya himoyasi "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.33/01.02.2022.I.145.01 raqamli Ilmiy Kengashning 2025-yil 9-avgust soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 140104, Samarqand shahri, Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel: (998 50) 725-89-07; Faks: (998 66) 240-67-68, e-mail: science-dept@univ-silkroad.uz, info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya bilan "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (32-raqam bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 140104, Samarqand sh., Universitet xiyoboni, 17-uy. Tel.: (99866) 240-67-68; Faks: (998 66) 240-67-68; e-mail: info@univ-silkroad.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil 26-iyul kuni tarqatildi
(2025-yil 26-iyuldagi 32-raqamli reyestr bayonnomasi).

A.A.Eshtayev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
raisi, i.f.d., professor

X.I.Turdibekov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
kotibi, i.f.n., dotsent

B.Sh.Safarov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy Kengash
qoshidagi Ilmiy seminar raisi, i.f.d.,
professor

KIRISH (Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda globallashtirish, xalqaro bozorlar beqarorligi hamda samarali rivojlanishga bo'lgan talablarning ortib borishi sharoitida turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish alohida ahamiyat kasb etmoqda. Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism) ma'lumotlariga ko'ra, "2024-yilda turizm sohasi qo'shimcha 27,4 million yangi ish o'rnini yaratib, dunyo bo'yicha jami taxminan 348 million ish o'rnini ta'minladi¹, 2025-yilning birinchi choragida esa xalqaro miqyosda 300 millionga yaqin turistlar sayohat qilgan bo'lib, bu 2024-yilga nisbatan 14 millionga ko'pdir"². Mavjud tendensiyalar tahlili shuni ko'rsatadiki, turizm salohiyatini kengaytirish, turizm subyektlari faoliyatini samarali muvofiqlashtirish, institutsional muhitni yaxshilash, inklyuziv o'sish imkoniyatlarini oshirish hamda iqtisodiy inqirozlarning oldini olish maqsadida turizm sohasini davlat tomonidan kompleks yondashuv asosida tartibga solish zarurati ortib bormoqda. Shu boisdan, ushbu sohani tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish milliy strategiyasining ajralmas qismi sifatida, ularning xalqaro turizm bozoridagi raqobatbardoshligini oshirish dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish hamda hududlarni barqaror rivojlantirish masalasi davlat organlari zimmasiga yuklatilgan eng muhim strategik vazifalardan biri sanaladi. Bu boradagi tadqiqotlar institutsional modellarning samaradorligini baholash, davlat-xususiy sheriklik mexanizmlarini tahlil qilish, boshqaruvni raqamlashtirish, barqaror moliyalashtirish, turizm siyosatida ijtimoiy inklyuzivlikni ta'minlash, iqtisodiy inqirozlar, pandemiyalar hamda iqlim o'zgarishlariga moslashuvchanlikni o'rganish kabi yo'nalishlarni qamrab olmoqda. Shu bilan birga, iqtisodiy o'sish bilan barqaror rivojlanish o'rtasidagi muvozanatni ta'minlashdagi davlatning roli, turizm strategiyalarini taqqoslovchi yondashuvlar, sohani tartibga solish sifatini baholovchi indikatorlar va reytinglar ham ishlab chiqilmoqda. Shu bois, ilmiy izlanishlar nafaqat nazariy bazani boyitmoqda, balki milliy hamda xalqaro darajada turizm sohasida samarali va barqaror siyosatni shakllantirishga qaratilgan amaliy tavsiyalar ishlab chiqish masalasiga ham alohida e'tibor qaratilmoqda.

Yangi O'zbekistonda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish tizimini takomillashtirish barqaror rivojlanish hamda iqtisodiyotni modernizatsiya qilishga qaratilgan milliy strategiyaning ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylanmoqda. "So'nggi yillarda turizm eksporti 1,6 karra oshib, 3,5 milliard dollarga yetdi. Bu sohada 2 mingdan ortiq yangi tadbirkor ish boshladi. Muhimi, xorijiy turistlar oqimi ilk bor 10 millionlik marradan o'tdi. 2040-yilgacha turizmning iqtisodiyotdagi ulushini 7 foizga, eksportni esa 10 milliard dollarga yetkazish

¹ UN-Tourism. Jahon turizm barometri. 2024, from <https://www.unwto.org/un-tourism-world-tourism-barometer-data>

² <https://www.unwto.org/news/international-tourist-arrivals-grew-5-in-q1-2025>

lozim”³. Ushbu vazifalarni hal etish masalasida, chuqurlashib borayotgan islohotlar va global turizm makoniga integratsiyalashuv sharoitida, mamlakatimizning davlat siyosati qulay investitsion muhitni yaratish, ko‘p bosqichli boshqaruvni rivojlantirish, raqamli texnologiyalarni joriy etish hamda xususiy sektor ishtirokini turizm infratuzilmasida kengaytirishga qaratilgan bo‘lib, shuningdek, ijtimoiy inklyuzivlik, mintaqaviy rivojlanish, ekologik barqarorlik, turistik xizmatlar sifati, turistik klasterlarni faol rivojlantirish, kadrlar tayyorlash dasturlarini amalga oshirish, institutsional bazani mustahkamlash va mamlakatning xalqaro maydondagi raqobatbardoshligini oshirish masalalariga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish mexanizmlarini takomillashtirish, tarmoqni kompleks, muvozanatli va inklyuziv rivojlantirish, turizmning milliy iqtisodiy o‘rinishini ekonometrik usullar orqali istiqbolli parametrlarni ishlab chiqish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlarni olib borishni taqozo etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 7-iyuldagi PF-114-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida madaniyat va turizm sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2024-yil 12-yanvardagi PF-9-son “Respublikaga xorijiy turistlar oqimini keskin oshirish hamda ichki turizmni yanada jadallashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 15-maydagi PF-87-son “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Farmonlari, 2022-yil 2-dekabrda PQ-436-son “2030-yilgacha O‘zbekiston Respublikasining “yashil” iqtisodiyotga o‘tishga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo‘yicha chora-tadbirlar to‘g‘risida”, 2022-yil 24-dekabrda PQ-436-son “Samarqand viloyatining turizm va transport salohiyatidan samarali foydalanish, viloyatni “Samarqand – Yangi O‘zbekistonning turizm darvozasi” konsepsiyasi asosida rivojlantirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarorlari, shuningdek, 2025-yil 24-iyuldagi 385-son “Turizm obyektlari hamda joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta‘siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish va ekologik talablarga muvofiq ko‘rsatiladigan xizmatlarni rag‘batlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining qarori hamda turizm sohasiga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ko‘rsatilgan chora-tadbirlarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

³ 2025-yil 9-aprel kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida “Hududlarning turizm salohiyatini yanada oshirish hamda xorijiy hamkorlar bilan amalga oshirilayotgan investitsiya loyihalarini jadallashtirish” yuzasidan videoselektor yig‘ilishi. <https://iibb.uz/uz/news/prezident-shavkat-mirziyoyev>

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Turizm sohasi va uni tartibga solish masalalari xorijlik va mamlakatimizning iqtisodchi olimlari tomonidan atroflicha ilmiy tadqiq etilgan. Xususan, S.Page, J.Connell, J.Elliott, M.Joppe, C.M.Hall, J.Jenkins, R.M.Mill, A.M.Morrison, G.Jain, B.Mallick, D.Jeffries, J.Kandampully, D.Solnet, K.Kan, J.Sun, J.Collado-Agudo, A.Herrero-Crespo, H.S.Martin-Gutierrez, L.Donskova, A.Barannikov, A.Redkin, I.Sustacha, J.F.Banos-Pino, E.Del Valle, S.Shafiee, A.R.Ghatari, A.Hasanzadeh, S.Jahanyan, E.Cerda-Mansilla, I.Tussyadiah, S.Campo, N.Rubio, O.G.Davidova, C.C Galasyuk⁴ va boshqalarning ilmiy ishlarida chuqur tahlil etilgan.

Mamlakatimizda ham turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy masalalariga bir qator iqtisodchi olimlar, jumladan, Q.X.Abduraxmonov, N.Tuxliyev, I.S.Tuxliyev, A.A.Eshtayev, B.Sh.Safarov, O.X.Xamidov, B.X.To'rayev, M.T.Aliyeva, A.N.Norchayev, N.S.Ibragimov, U.R.Matyakubov, A.T.Mirzayev, A.B.Taniyev, N.Sh.Mansurova⁵ va boshqalar tomonidan o'rganilgan.

Mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirishga qaratilgan tadqiqotlarda turli nazariy va metodik yondashuvlar ilgari surilgan bo'lsa-da, ayniqsa turizm sohasini

⁴ Page J.S., Connell J. *Tourism: A Modern Synthesis*. – London: Routledge Publications, 2020. – 211 p. Elliott J. *Tourism: Politics and Public Sector Management*. – London: Routledge Publications, 1997. – P. 156–158. Joppe M. *Tourism Policy and Governance // Tourism Management Perspectives*. – 2018. – Vol. 25. – P. 201–204. Hall M.C., Jenkins J. *Tourism and Public Policy*. – 4 th ed. – London: Routledge Publications, 1995. – 99 p. Mill R.M., Morrison A.M. *The Tourism System: An Introductory Text*. – Englewood Cliffs, NJ: Prentice Hall Publication, 1985. – 320 p. Jain G., Mallick B. *A Study of Time Series Models ARIMA and ETS [Electronic resource]*. – SSRN, 2017. Jeffries D. *Governments and Tourism*. – Oxford: Butterworth-Heinemann, 2001. – P. 95–97. Kandampully J., Solnet D. *Service Management Principles for Hospitality and Tourism*. – 3rd ed. – 2018. – P. 124–126. Kan K., Sun J. *Dispossession and Beyond: Politics of Rural Land Conversion in China's Tourism Villages // Journal of Rural Studies*. – 2024. – Vol. 112. P. 233. Collado-Agudo J., Herrero-Crespo A., Martín-Gutierrez H.S. *The Adoption of a Smart Destination Model by Tourism Companies: An Ecosystem Approach // Journal of Destination Marketing & Management*. – 2023. Donskova L., Barannikov A., Redkin A. *State Regulation of Tourism and Tourism Policy: Foreign and Russian Experience // Public Administration*. – 2022. – Vol. 24, No. 1. – P. 86–92. Sustacha J.F., Banos-Pino E., Del Valle E. *How Smartness Affects Customer-Based Brand Equity in Rural Tourism Destinations // Journal of Destination Marketing & Management*. – 2024. Shafiee S., Ghatari A.R., Hasanzadeh A., Jahanyan S. *Developing a Model for Sustainable Smart Tourism Destinations: A Systematic Review // Tourism Management Perspectives*. – 2019. – Vol. 31. – P. 287–300. Cerda-Mansilla E., Tussyadiah I., Campo S., Rubio N. *Smart Destinations: A Holistic View from Researchers and Managers to Tourists and Locals // Tourism Management Perspectives*. – 2024. Давыдова О.Г. Инструменты государственного регулирования развития туристической деятельности в Украине. – 2015. Галасюк С.С. Модели государственного регулирования в сфере туризма // *The Scientific Journal of Global State University*. – Одесса, Украина, 2020. P. 647–660.

⁵ Абдурахмонов К.Х. *Менеджмент туризма // учебное пособие*. – Т.: «Фан ва технология», 2014. – 332 б., Тухлиев Н., Абдуллаева Т. *Экологический туризм: сущность, тенденции и стратегия развития*. – Т.: – «O'zbekiston milliy ensiklopediasini», 2006. Tuxliyev I.S., Qudratov G'X, Pardayev M.Q. *Turizmni rejalashtirish // Darslik*. -T.: "Iqtisod-Moliya" nashriyoti, 2010. – 238 b., Eshtayev A.A. *Turizmni rejalashtirishning marketing strategiyasi*. // T: Fan, 2011. T. 1. № 1. 280 b., Safarov B.Sh. *Milliy turizm xizmatlar bozorini innovatsion rivojlantirishning metodologik asoslari: monografiya*. // T.: "Fan va texnologiya", 2016. T. 1. № 1. 184 b., Xamidov O.X. *O'zbekistonda ekologik turizmni rivojlantirishni boshqarish mexanizmini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya*. -S.: SamISI, 2017. – 260 b., Тураев Б.Х. *Организационно-экономические механизмы регионального туризма // Т.: Фан, 2009. T. 1. № 1. С. 153. Aliyeva M.T. Iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida turizm xizmatlari sohasini boshqarishning iqtisodiy jihatlari (O'zbekiston Respublikasi misolida) // iqt. fan.doktorlik dissertatsiyasi avtoreferati. - Samarqand, 2019. 68 b., Norchayev A.N, Zamonaviy turizm infratuzilmasining shakllanish va rivojlanish tendensiyalari // iqtisodiyot fanlari doktori ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya. – T.: TDIU, 2021. – 246-b., Ibragimov N.S. *O'zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishda destinatsion menejment konsepsiyasini qo'llash // dis. ... i.f.n. Buxoro, 2006. T. 1. № 1. 183 b., Matyakubov U.R. Orolbo'yi mintaqasida turizmni strategik rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy va metodologik yo'nalishlarini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – Urganch, 2022. – 78 b., Mirzayev A.T. *O'zbekistonda turistik-rekreatsiya faoliyatini boshqarish metodologiyasini takomillashtirish // DSc. diss. avtoref. – T.:, 2021. 68 b. Taniyev A. Milliy turizm xizmatlari bozorida iqtisodiy resurslardan samarali foydalanish: nazariya va amaliyot // Monografiya. – Innovatsion ziyo nashriyoti. Toshkent: 2025.-192 b., Mansurova N.Sh. *Barqaror turizmni samarali rivojlantirishning metodologik asoslari // Monografiya. "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universiteti nashriyoti. S.: 2025. – 230 b.****

davlat tomonidan tartibga solish masalasi yetarli darajada ilmiy asosda chuqur o'rganilmagan. Jumladan, turizmni tartibga solishga oid iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmini takomillashtirish metodologiyasi yetarlicha o'rganilmagan. Mazkur tadqiqotda esa ushbu masala Samarqand viloyati misolida kompleks tahlil etilib, hududiy darajada barqaror turizmni tartibga solish mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti "Ipak yo'li" turizm va madaniy meros xalqaro universitetining №SRITU-18/02-"Turizm va madaniy meros sohalarini samarali rivojlantirishning innovatsion usullari" mavzusidagi ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga mos keladi.

Tadqiqotning maqsadi turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmini takomillashtirish bo'yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

"turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish" iqtisodiy kategoriyasining mohiyatini nazariy jihatdan tahlil etish asosida mualliflik ta'rifi va yondashuvlarini ishlab chiqish;

turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning usul va vositalarini tizimlashtirish;

turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning xorij tajribasini tadqiq etish;

hududiy turizm sohasi rivojlanishining iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlarini tadqiq etish;

hududiy turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish elementlarining ahamiyatini va ularning hozirgi rivojlanish holatini aniqlash maqsadida "IPA" (Importance-Performance Analysis) tahlilini amalga oshirish hamda tartibga solish jarayonida strategik jihatdan eng ko'p e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan ustuvor elementlarni aniqlash;

turizm sohasida turistik kompaniyalar faoliyatini optimallashtirish va davlat tomonidan tartibga solish bo'yicha tizimli yondashuvlarni ishlab chiqish, hududiy xususiyatlarni aniqlash, turizm biznes portalini tashkil etish konsepsiyasi hamda uni shakllantirish mexanizmini ishlab chiqish;

sistematik bibliografik analiz orqali smart turistik manzillar yaratish va rivojlantirishning konseptual asoslarini ishlab chiqish va bu borada amaliy taklif va tavsiyalar berish;

hududda ichki va kiruvchi turistlar sonining 2030-yilga qadar prognoz parametrlarini ishlab chiqish;

turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar ishlab chiqish.

Tadqiqotning obykti sifatida hududlarda faoliyat ko'rsatayotgan davlat hokimiyat organlari va turizm sohasida xo'jalik yurituvchi subyektlar olingan.

Tadqiqotning predmeti hududlarda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning mexanizmini takomillashtirish bilan bog‘liq iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlar majmui hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada ilmiy abstraksiya, tahlil va sintez, induksiya va deduksiya, tizimli tahlil, iqtisodiy-matematik usullar, jumladan, sistematik bibliografik tahlil, abstrakt fikrlash, IPA tahlil, statistik va solishtirma tahlil, ekonometrik tahlil va guruhlash, prognozlashtirish usullari qo‘llanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Samarqand viloyatida 2,4 million nafar xorijiy turistlarni va 4,5 million nafar mahalliy sayyohlarni jalb qilish maqsadida turizm sohasidagi mutaxassislar xabardorligini oshirishga, ularning ko‘nikmalarini rivojlantirishga va milliy biznes kontent yaratishga yordam beruvchi “Turizm-biznes” portalini ishlab chiqish asosida “O‘zbekistonni tanitamiz–Rag‘batlantiruvchi sayohat” modelidan foydalanish bo‘yicha takliflar asoslangan;

turizm obyektlari joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta’siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanishni, shuningdek, sohada ekologik talablar asosida ko‘rsatiladigan xizmatlarni rag‘batlantirish tizimini joriy etish maqsadida “Eng namunali yashil turizm obyekti” tanlovini o‘tkazish asosida “Smart turistik hududlar” milliy tarmog‘ini yaratish indikatorlar tizimi modelini joriy etish bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududlarda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish hamda tashkil etilgan raqamli boshqaruv elementlarining ahamiyati va hozirgi rivojlanish holatini aniqlash maqsadida “Turistik obyektlarda texnologik innovatsiyalardan foydalanish”, “Smart turistik manzillar yaratish”, “Turizm sohasidagi investorlar va tadbirkorlar bilan hamkorligini rivojlantirish” indikatorlar ta’siri asosida “Importance-Performance” modelidan foydalanish bo‘yicha takliflar asoslangan;

hududda turizm sohasini samarali rivojlantirishga ta’sir etuvchi omillarning tahlili asosida ichki va kiruvchi turistlar oqimining 2030-yilga qadar prognoz parametrlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijasi quyidagilardan iborat:

“Paired sample t-test” natijalari asosida turizm sohasini tashkil etuvchi elementlar, ularning ahamiyati va amaldagi rivojlanish darajasiga ko‘ra baholanib, tartibga solishda ustuvor e’tibor qaratilishi lozim bo‘lgan yo‘nalishlar asoslangan;

Smart turistik hududlarni yaratish va rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari aniqlanib, ushbu jarayonni samarali tashkil qilish va baholashga xizmat qiluvchi indikatorlar tizimi ishlab chiqilgan;

iqtisodiy boshqaruvning turli darajalarida turistik tashkilotlar faoliyatini baholashning kompleks ko‘rsatkichlari tizimi, turizm tashkilotlarining daromad olish dinamikasi, mijozlar mamnuniyati va xodimlar qo‘nimsizligiga ta’sir etuvchi omillar “Two sample t-test” natijasiga ko‘ra tahlil qilingan;

hududda ichki va kiruvchi turistlarning istiqbolli parametrlarini aniqlash bo‘yicha iqtisodiy va ijtimoiy omillar ta’siri asosida ekonometrik model ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda qo'llanilgan uslubiy yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi axborot bazasining rasmiy manbalaridan, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining Turizm qo'mitasi, O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy ma'lumotlari, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (UN), Butunjahon turizm tashkiloti (UN Tourism), Xalqaro iqtisodiy forum (WEF), Xalqaro turizm va sayohat kengashi (WTTC), Jahon banki (WB), Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti rasmiy ma'lumotlaridan foydalanilganligi, ishda qo'llanilgan yondashuv va usullarning maqsadga muvofiqligi va ilmiy asoslanganligi, keltirilgan xulosa, taklif va tavsiyalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan amaliyotga joriy qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish, sohada xususiy sektor faoliyatini optimallashtirish va ularning davlat hokimiyat organlari bilan hamkorlik aloqalarini mustahkamlash, sohada tartibga solish elementlarining joriy holatini yaxshilash yo'nalishlarida ilmiy kontentni boyitishda foydalanishi bilan izohlanadi. Shu bilan birga, ushbu tadqiqot natijalari turizmni rivojlantirish uchun iqtisodiy-huquqiy, tashkiliy va metodologik-uslubiy asoslarni takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy izlanishlar uchun nazariy va amaliy manba sifatida foydalanish imkoniyatini taqdim etadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va samarali rivojlantirishning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmini takomillashtirish orqali barqaror rivojlanishga erishish va sohaning jozibadorligini oshirish bo'yicha takliflardan O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi tasarrufidagi tuzilmalar faoliyatida bevosita foydalanish mumkinligi bilan izohlanadi. Shuningdek, tadqiqot natijalari 2022–2026-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha Taraqqiyot strategiyasida belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan chora-tadbirlarni ishlab chiqishga muayyan darajada xizmat qilishi mumkin.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmi takomillashtirish bo'yicha ishlab chiqilgan takliflar asosida:

Samarqand viloyatida 2,4 million nafar xorijiy turistlarni va 4,5 million nafar mahalliy sayyohlarni jalb qilish maqsadida turizm sohasidagi mutaxassislar xabardorligini oshirishga, ularning ko'nikmalarini rivojlantirishga va milliy biznes kontent yaratishga yordam beruvchi "Turizm-biznes" portalini ishlab chiqish asosida "O'zbekistonni tanitamiz – Rag'batlantiruvchi sayohat" modelidan foydalanish bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 15-maydagi PF-87-son "Xorijiy va mahalliy turistlar oqimini yanada oshirish, turizm infratuzilmasini yaxshilash va targ'ibot ishlarini kengaytirish bo'yicha" "Yo'l xaritasi"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 10-iyuldagi 03-10-17-6188-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida Samarqand viloyatida 2,4 million nafar xorijiy turistlarni va 4,5 million mahalliy sayyohlarni jalb qilish imkoniyati yaratilgan;

turizm obyektlari joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanishni, shuningdek, sohada ekologik talablar asosida ko'rsatiladigan xizmatlarni rag'batlantirish tizimini joriy etish maqsadida "Eng namunali yashil turizm obyekti" tanlovini o'tkazish asosida "Smart turistik hududlar" milliy tarmog'ini yaratish indikatorlar tizimi modelini joriy etish bo'yicha asoslangan takliflar 2025-yil 24-iyuldagi 385-son "Turizm obyektlari hamda joylashtirish vositalarida atrof-muhitga salbiy ta'siri kamaytirilgan mahsulotlardan foydalanish va ekologik talablarga muvofiq ko'rsatiladigan xizmatlarni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi "Nazorat rejasiga" kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 10-iyuldagi 03-10-17-6188-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida turistik hududlarda boshqaruv, infratuzilma va xizmatlar sifati raqamli texnologiyalar asosida muvofiqlashtirilib, aholi farovonligi va hududlararo turizm aloqalari sezilarli darajada oshishiga erishildi, shuningdek, sayyohlar qoniqish darajasini 10 foizga oshirish imkoniyati yaratilgan;

hududlarda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish hamda tashkil etilgan raqamli boshqaruv elementlarining ahamiyati va hozirgi rivojlanish holatini aniqlash maqsadida "Turistik obyektlarda texnologik innovatsiyalardan foydalanish", "Smart turistik manzillar yaratish", "Turizm sohasidagi investorlar va tadbirkorlar bilan hamkorligini rivojlantirish" indikatorlar ta'siri asosida "Importance-Performance" modelidan foydalanish bo'yicha asoslangan takliflar Turizm qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan "2025-2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 10-iyuldagi 03-10-17-6188-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududiy turizm sohasida raqamli boshqaruv elementlarini baholash asosida ustuvor yo'nalishlar aniqlanib, rivojlantirishga doir konseptual takliflar ishlab chiqilgan hamda boshqaruv samaradorligini 15 foizga oshirish imkoniyati yaratilgan;

hududda turizm sohasini samarali rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillarning tahlili asosida ichki va kiruvchi turistlar oqimining 2030-yilga qadar ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari Turizm qo'mitasining "2025-2030-yillarda hududlarning turizm salohiyatini izchil o'rganish natijasida amalga oshirilishi rejalashtirilgan chora-tadbirlar" dasturi va "Yo'l xaritalari"ga kiritilgan (Turizm qo'mitasining 2025-yil 10-iyuldagi 03-10-17-6188-son ma'lumotnomasi). Mazkur taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududda mahalliy va kiruvchi turistlar sonining 30%ga oshishi dalillangan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy anjumanlarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta ilmiy ish, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 tasi respublika va 2 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 146 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obyekti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, tadqiqot natijalarining ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinganligi hamda dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar keltirilgan.


Dissertatsiyaning **“Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning nazariy asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish va uning iqtisodiy-ijtimoiy mexanizmini takomillashtirishga oid ilmiy yondashuvlar nazariy jihatdan tahlil qilinib, “turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish” kategoriyasining iqtisodiy-ijtimoiy mazmuniga mualliflik ta‘rifi ishlab chiqilgan. Turli ilmiy yondashuvlarga asoslangan holda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish bilan bog‘liq tamoyillar aniqlangan. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishning o‘ziga xos xususiyatlari va usullari tasniflanib, ilg‘or xorijiy tajriba tadqiq qilingan.

Bugungi kunda xorijiy va mahalliy olimlar tomonidan turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish tushunchasini o‘rganishga qaratilgan qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan. Ushbu tadqiqotlarni nazariy jihatdan tahlil qilgan holda, “turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish” atamasini quyidagicha izohlash maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz: “turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish” – bu davlatning mahalliy aholi va turistlarning manfaatlarini inobatga olib sohaning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyotini ta‘minlashning turli xil huquqiy va tashkiliy shakllari va usullaridan foydalanishni o‘z ichiga oluvchi, turizm sohasiga bevosita va bilvosita ta‘sir etuvchi subyektlar o‘rtasida o‘zaro manfaatli aloqalarni ta‘minlovchi, turistik hududlarda smartlashtirish jarayonini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik talab va taklif orasidagi nisbatlarni muvofiqlashtiruvchi obyektiv tavsifga ega faoliyatdir.

Bugungi kunda turizm sohasi iqtisodiy o‘shish, yangi ish o‘rinlarini yaratish hamda mintaqaviy rivojlanishni ta‘minlashda muhim o‘rin tutadi. Sohaning barqaror rivojlanishi uchun uni davlat tomonidan tartibga solish, huquqiy-me‘yoriy asoslarni takomillashtirish, xavfsizlik va xizmat sifati ustidan nazoratni kuchaytirish dolzarb vazifalardan biriga aylangan. Shu munosabat bilan boshqaruv jarayonining turli bosqichlarida turizm sohasini tartibga solishning asosiy tamoyillari va usullarini ishlab chiqishda yangi yondashuvlar zarur bo‘lmoqda.

Bizning fikrimizcha, turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishda uning barqaror va beqaror rivojlanish davrlariga mos keluvchi tamoyillar asosida ajratilgan holda tahlil etilishi muhim ahamiyat kasb etadi. Turizm sohasini tartibga solishning asosiy tamoyillari maxsus hududiy dasturlar, qisqa va uzoq muddatli kompleks chora-tadbirlar hamda istiqboldagi qarorlarni qabul qilishda davlat

hokimiyati organlari rahbarligida qo‘llaniladigan aniq standartlarga ega tamoyillar, qoidalar va chora-tadbirlar tizimini o‘z ichiga qamrab oladi (1-rasm).



1-rasm. Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish tamoyillari⁶

Samarali rivojlanishga bo‘lgan talablarning ortib borishi sharoitida turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish, uning subyektlari tomonidan amalga oshiriladigan turli xil shakllar, usullar va vositalar orqali turizm xizmatlari bozorida talab va taklif o‘rtasida dinamik muvozanatni ta‘minlash hamda samarali turizm faoliyatini yo‘lga qo‘yish muhim hisoblanadi. Shuni inobatga olgan holda

⁶ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish usullarining umumiy tasnifi ishlab chiqildi (1-jadval).

1-jadval

Turizm sohasini tartibga solish usullarining tasnifi⁷

Tasnif belgisi	Tasnif mazmuni
Tartibga solish chora-tadbirlariga muvofiq	Iqtisodiy, tashkiliy, huquqiy, ma'muriy, axborot ta'minoti va ijtimoiy-psixologik
Ta'sir qilish uslubiga muvofiq	To'g'ridan-to'g'ri ta'sir etuvchi usullar (qonunlar va normativ-me'yoriy hujjatlar; turizm xizmatlari sifatini belgilash (standartlashtirish va sertifikatlash); turizmning aholi salomatligiga ta'siri bo'yicha xavfsizlik qoidalariga rioya qilish; bilvosita ta'sir etuvchi usullar (iqtisodiy chora-tadbirlar)
Tartibga solish chora-tadbirlarining tavsifiga muvofiq	Umumiy davlat siyosati usullari (xizmatlar sektorining funksiyalarini rivojlantirish, mintaqaviy rivojlanish sohasidagi jarayonlar, chegaralararo hamjihatlikni kuchaytirish va qulay soliq tizimi); Maxsus usullar (turizm bozorining qonun-qoidalari, turar-joy obyektlarida boshqaruv mexanizmlari, tur agentlik bozori tashkilotlarining nizomlari).
Ta'sir etish obyektiga muvofiq	Barcha iqtisodiy faol aholi qatlami, turistik faoliyat olib boruvchi tadbirkorlar, turistlar talabiga mos keluvchi turistik ahamiyatga ega obyektlarni shakllantirish, turistik mahsulot sifatini belgilash mexanizmlari.
Moliyalashtirish jihatlariga muvofiq	Davlat budjeti, xususiy sektor ulushi, davlatning xususiy sektor bilan sherikchiligi
Ta'sir etish yo'nalishlariga muvofiq	Turistik mahsulot talab va taklif miqdoriga ta'sir qiluvchi chora-tadbirlar, turistik talab va taklif o'rtasidagi dinamik muvozanatni ta'minlashga yo'naltirilgan choralar, raqamlashtirilgan turistik hudud yaratishning strategik mexanizmlarini takomillashtirishga qaratilgan chora-tadbirlar.
Tartibga solish xarakteriga muvofiq	Rag'batlantirish va cheklash asosida himoyalovchi usullar
Ta'sir etish muddatiga muvofiq	Uzoq va qisqa muddatli chora-tadbirlar
Ta'sir etish darajasiga muvofiq	Xalqaro, milliy va hududiy miqyosdagi chora-tadbirlar.

Tartibga solish vositalari tahlil qilinayotgan boshqaruv mexanizmining eng muhim tarkibiy qismlaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasini tartibga solish vositalari deganda, davlat tomonidan turizm sohasini boshqarishda qo'llaniladigan iqtisodiy-ijtimoiy tizim elementlari yoki ularning majmuasi tushuniladi. Tadqiqotimizda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solishda huquqiy ta'minot vositalari, iqtisodiy vositalar, tashkiliy vositalar, ijtimoiy kafolatlar, axborot ta'minoti hamda ijtimoiy-psixologik ta'sir vositalari yo'nalishlari bo'yicha tizimlashtirilib, ularni takomillashtirishga doir asosiy yo'nalishlar belgilab olindi va amaliy takliflar ishlab chiqildi.

Turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish jarayonida xorijiy mamlakatlarning amaliy tajribasi hamda sohani rivojlantirishga oid global

⁷Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tendensiyalarni chuqur o'rganish va ularga tayanish muhim nazariy va amaliy ahamiyatga ega. Tadqiqot doirasida AQSH, Yaponiya, Ispaniya, Islandiya, Rossiya, Buyuk Britaniya, Polsha, Slovakiya, Xitoy va Qozog'iston kabi mamlakatlarning tegishli tajribalari tahlil qilindi. Xususan, Ispaniyada keng miqyosda olib borilayotgan Smart turizmni rivojlantirish strategiyalari, Islandiyaning mas'uliyatli turizmni takomillashtirishga qaratilgan mexanizmlari, Yaponiyada ko'p tilli yordam xizmatlarini kuchaytirish va turizm sohasida ilg'or texnologiyalari, ya'ni ultra yuqori tezlikka ega beshinchi avlod texnologiyalari (5G), masofaviy boshqaruvni ta'minlovchi "Internet of Things", "Augmented va Virtual Reality" tizimlari va boshqalarni keng joriy etilayotgani alohida e'tiborga loyiqdir. Ushbu xorijiy tajribalarga tayangan holda, mazkur ilg'or modellardan O'zbekiston sharoitida ham foydalanish, xususan, Smart turizmni joriy etish, mas'uliyatli turizm tamoyillarini kengaytirish, raqamli infratuzilmani rivojlantirish va zamonaviy texnologiyalarni tatbiq etish tavsiya qilingan.

Tadqiqot ishining **"Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanish holati, omillari va tendensiyalari"** deb nomlangan ikkinchi bobida Samarqand viloyati turizm sohasi rivojlanish holati, omillari va iqtisodiy-ijtimoiy ko'rsatkichlari tahlil qilingan, shu bilan birga ushbu bobda turizm sohasini davlat tomonidan tartibga solish elementlarining ahamiyatlilik darajasi va ularning hozirgi rivojlanish holati "Importance-Performance Analysis" (IPA) orqali hamda turistik tashkilotlar faoliyatiga ta'sir etuvchi iqtisodiy-ijtimoiy omillarning tahlili "Two sample" t-testi orqali tahlil qilindi.

Globalashuv jarayonlari va innovatsion texnologiyalar ta'sirida turizm sohasi xalqaro iqtisodiyotda ustuvor o'rin egallayotgan strategik tarmoqlardan biriga aylanmoqda. O'zbekiston ham turizmni milliy iqtisodiyotning muhim yo'nalishlaridan biri sifatida rivojlantirishga alohida e'tibor qaratib, madaniy merosga asoslangan yo'nalishlarni kengaytirish, infratuzilmani modernizatsiya qilish hamda xalqaro hamkorlikni mustahkamlash borasida izchil islohotlarni amalga oshirmoqda. Xususan, madaniy merosga asoslangan turistik yo'nalishlarni kengaytirish, infratuzilmani zamonaviylashtirish va xalqaro hamkorlikni mustahkamlash orqali turizm xizmatlari sifatini oshirish maqsad qilingan.

Shu nuqtai nazardan, Samarqand viloyati turizm salohiyati yuqori bo'lgan hududlardan biri sifatida ajralib turadi. 2024-yil holatiga ko'ra, viloyatda xizmatlar eksporti hajmi 46,7 million AQSH dollariga yetib, jami eksportning 42 foizini tashkil etdi. Bu ko'rsatkichda turizm xizmatlari 41,6 foiz ulush bilan yetakchilik qilmoqda, transport xizmatlari esa 35,8 foiz ulush bilan ikkinchi o'rinda turadi. Bu raqamlar viloyatda turizm sohasining iqtisodiy samaradorligini yaqqol ko'rsatib turibdi.⁸ Viloyatdagi mavjud infratuzilma ham turizm rivojiga xizmat qilmoqda. Jumladan, 2024-yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari soni 596 taga yetdi. Bu esa sayyohlar uchun qulay sharoitlar yaratishda muhim omildir. Samarqand viloyatining turizm salohiyatini belgilovchi eng muhim jihatlardan biri—bu boy moddiy madaniy merosidir. Hududda jami 1607 ta moddiy madaniy meros obyektlari mavjud bo'lib, ularning 973 tasi arxeologiya, 562 tasi arxitektura obyektlari, 36 tasi monumental san'at asarlari 34 tasi boshqa diqqatga

⁸ Muallif tomonidan Samarqand viloyati Statistika Boshqarmasi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

sazovor joylar hisoblanadi. Ularning 1011 tasi respublika, 596 tasi mahalliy miqyosda ahamiyatli obyektlar sanaladi. 562 ta arxitektura obyektlarining 72 tasi jome masjidi, 5 tasi esa cherkov sifatida foydalanilmoqda. Moddiy madaniy meros obyektlarining 1386 tasi davlat, 221 tasi esa xususiy sektorga tegishli bo‘lib, shaxsiy mulkdagi turar-joy binolarida joylashgan.⁹

Ushbu mavjud salohiyatni to‘g‘ri baholash, samarali boshqarish va Samarqand viloyati turizm sohasining rivojlanishi holatiga ta’sir etuvchi tartibga solish elementlarini tahlil etish maqsadida “Importance-Performance analysis” (IPA) tahlilidan foydalanildi. Ushbu testning natijasi 2-jadvalda keltirilgan.

2-jadval

Paired sample t-test natijalari¹⁰

O‘zga rUVchi lar	Ahamiyatliligi		Hozirgi rivojlanish darajasi		Farqliligi		t- qiymat	Statistik ahamiyat- liligi
	O‘rta- cha	Stan- dard og‘ish	O‘rta- cha	Stan- dard og‘ish	O‘rta- cha	Stan- dard og‘ish		
E1	3,937	1,181	3,250	0,930	0,687	1,701	1,616	0,126
E2	4,312	0,198	3,125	0,179	1,187	0,227	5,216	0,001
E3	4,500	0,516	3,625	0,885	0,875	0,806	4,341	0,006
E4	4,000	0,966	3,500	1,154	0,500	1,460	1,369	0,191
E5	4,250	0,856	2,750	0,856	1,500	1,211	4,954	0,002
E6	3,937	0,771	3,500	0,894	0,437	1,093	1,600	0,065
E7	3,937	0,771	0,325	0,774	0,687	1,400	1,963	0,130
E8	3,750	1,125	2,937	0,928	0,812	1,376	2,360	0,032
E9	4,062	1,123	3,000	1,414	1,062	2,205	1,927	0,073
E10	4,31	0,793	2,625	0,718	1,687	1,138	5,929	0,000
E11	3,437	0,813	2,312	1,195	1,125	1,543	2,914	0,010
E12	3,875	1,024	2,625	1,024	1,250	1,653	3,024	0,008
E13	3,562	1,412	2,687	0,946	0,875	1,962	1,783	0,094
E14	3,937	0,853	2,625	0,500	1,312	1,138	4,612	0,003
E15	4,062	1,123	2,687	0,946	1,375	1,500	3,666	0,002
E16	0,325	1,125	3,187	1,806	0,062	1,806	0,138	0,891
E17	3,750	0,856	3,125	0,806	0,625	1,408	1,775	0,096


Turizm marketing faoliyatiga katta miqdorda mablag‘ ajratish (E1); raqobatbardosh mehnat bozori uchun turizm sohasida yangi ish o‘rinlari yaratish (E2); turizm sohasiga oid qarorlar qabul qilishda keng jamoatchilikning ishtirokini ta’minlash (E3); hokimiyat organlari xodimlarining yangi texnologiyalarga moslashish tezligini oshirish (E4); turistik obyektlarda texnologik innovatsiyalardan foydalangan holda yangi va qiziqarli sayohat mashg‘ulotlari tashkil etish (E5); hudud turizmi sohasida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot ishlarining amaliyot bilan uyg‘unligini ta’minlash (E6); kiber xavfsizlik (E7); favqulodda holatlarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish (E8); smart turistik hudud yaratish uchun loyiha va tashabbuslarni kuchaytirish (E9); hudud

⁹ <https://zarnews.uz/uz/post/Samarqanddagi>

¹⁰ Muallif tomonidan STATA dasturida amalga oshirilgan hisob-kitoblar

hokimiyat organlarining turizm sohasidagi investorlar va tadbirkorlar bilan hamkorlik qilishini kuchaytirish va chet el turistik tashkilotlari, tadbirkorlari va investorlari bilan hamkorlik aloqalari va kadrlar almashinuv dasturlarini rivojlantirish (E10); innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishi (E11); turizm tashkilotlarida faoliyat yurituvchi xodimlarni ijtimoiy-psixologik qo'llab-quvvatlash (E12); hudud hokimiyat organlarida tashkiliy o'zgarishlarni amalga oshirish (E13); turizm sohasida ishlovchi oliy ma'lumotli kadrlar sonini oshirish (E14); mahalliy aholi va turistlar uchun turizm rivojlanishining salbiy oqibatlarini kamaytirish (E15); raqamlashtirilgan turistik hududni rivojlantirish uchun huquqiy asos yaratish (E16); ekologik barqaror rivojlanish amaliyoti (E17).

Paired sample t-test natijalari asosida har bir o'zgaruvchining muhimlik va hozirgi rivojlanish darajasi baholanib, ular "Importance-Performance" (IPA) tahliliga kiritildi (2-rasm).



2-rasm "Importance-Performance" tahlili natijalari¹¹

Tahlil natijalariga ko'ra, barcha elementlar Iso-priority chiziqdan tepada joylashgan. Turistik obyektlarda texnologik innovatsiyalardan foydalanish (E5), Smart turistik manzillar yaratish (E9) va hudud hokimiyat organlarining turizm sohasidagi investorlar va tadbirkorlar bilan hamkorligini rivojlantirish va chet el turistik tashkilotlari va investorlari bilan hamkorlik kadrlar almashinuv dasturlarini kuchaytirish (E10) to'rtinchi kvadrantga tegishli hisoblanadi. O'tkazilgan ilmiy tahlilga asoslanib, to'rtinchi kvadrantga tegishli ushbu elementlarni takomillashtirishning viloyati turizm sohasi rivojiga to'sqinlik qilishi mumkinligini inobatga olib, istiqboldagi rejalarda mazkur masalalar bilan bog'liq chora-

¹¹ Muallif tomonidan ishlab chiqilgan

tadbirlarni yo'lga qo'yishni birlamchi vazifalar sirasiga kiritish kerak deb hisoblaymiz.


Mazkur bobda, shuningdek, Samarqand viloyati turistik tashkilotlarining daromad olish dinamikasi, xaridorlarning mamnunlik darajasi va xodimlar qo'nimsizligi masalalariga ta'sir etuvchi omillar "Two sample" t-testi orqali tahlil qilingan.

Tahlil natijalariga ko'ra, xodimlarni yuqori ish haqi bilan ta'minlash va daromad olish dinamikasi o'rtasida bog'liqlik mavjud emasligi aniqlandi. Turistik tashkilotlarning davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash chora-tadbirlaridan foydalanishi, eng so'ngi rusumdagi texnologiyalarni amaliyotga joriy etilishi, tashkilot bo'limlarining yakdillikda ish olib borishi va xodimlarning salohiyati va malakasiga qarab ish taqsimoti olib borilishi, marketing va reklama faoliyatiga katta miqdorda pul sarflanishi kabi omillar va daromad olish dinamikasi o'rtasidagi bog'liqlik mavjud ekanligi dalillandi.

Olingan natijalarga ko'ra, turistik tashkilotlar tomonidan turistlarga taqdim qilinadigan ma'lumotlar bazasining to'g'riligi, aniqligi hamda ekologik barqaror rivojlanish amaliyotining keng miqyosda tadbiq etilishi kabi omillar bilan turistlarning mamnunlik darajasi o'rtasida bog'liqlik borligi ilmiy dalillandi.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, turistik tashkilotlarda o'quv mashg'ulotlarining muntazam o'tkazilmasligi va past statusda ishlovchi xodimlarga rahbariyat hamda xaridorlar tomonidan bildiriladigan munosabatlar xodimlar qo'nimsizligi muammosiga ta'sir ko'rsatmasligi aniqlandi, biroq emotsional mehnatning ko'pligi natijasidagi stress holatlarining ko'pligi, lavozimda ko'tarilishning murakkabligi hamda chet davlatlar turistik tashkilotlari bilan kadrlar almashinuv amaliyotining kamligi omillari esa xodimlar qo'nimsizligi muammosiga ta'sir etishi ilmiy dalillandi.

